

Texnologiya Ta'limi Dars Mashg'ulotlarida O'qitishning An'anaviy Ta'lim Metodlari Asosida Innovatsion Texnologiyalardan Foydalanish Zaruriyati Va Imkoniyatlari

Mo`Minov S. Q.¹, Murtazaev M.Z.²

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya ta'limini o'qitishning an'anaviy ta'lim metodlari asosida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruriyati va imkoniyatlari, ilmiy uslubiy tahlil asosida modernizatsiyalashtirish orqali muvofiqlashtirish asoslari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Texnologiya ta'limi, an'anaviy metod, texnologiya va dizayn, servis xizmati, dars.

Ko'p yillik o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars ta'limning samarali modellaridan biri bo'lib qolmoqda. O'quv materiallari yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars - ko'p hollarda ta'lim jarayonining birdan-bir samarali modeli bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida ta'lim beruvchi o'qituvchi turadi. Ya'ni ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi o'qituvchi ta'lim oluvchiga nisbatan faol ishtirok yetadi. Shu bois, ba'zida an'anaviy darsni markazida ta'lim beruvchi turgan o'qitish modeli deb ham atashadi. An'anaviy darsning asosiy maqsadi - dars mavzusining asosiy mazmunini, tushuncha va faktlarini ta'lim beruvchi o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchilarga yetkazish va tushuntirishdan iborat. Dars - oldin o'zlashtirilgan bilimlar bilan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatilishidan boshlanadi.

An'anaviy metodlar deganda- ta'lim jarayonining markazida ta'lim beruvchi o'qituvchi bo'lgan va ta'lim oluvchilar nisbatan passiv ishtirok yetadigan metodlar tushuniladi. An'anaviy ta'lim metodlariga ma'ruza, namoyish, taqdimot, savol-javob, to'rt pog'onali metodlar kiradi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida o'tiladigan mavzu ancha murakkab bo'lganda, «To'rt pog'onali» metod ko'p hollarda ta'lim jarayonining birdan-bir qo'llaniladigan samarali metodi bo'lib qolmoqda.

Pedagogikada har qanday fan kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Zero, har bir fanning rivoji insoniyat tomonidan jamiyat va tabiat o'rtasidagi aloqadorlik, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar mohiyatini anglashga bo'lshgan ehtiyojning yuzaga kelishi va uni qondirishga qaratilgan harakatlarga bog'liq.

Yoshlarni kasb tanlashga o'rgatish muammosi: usul jihatdan –pedagogik; mazmunan-ijtimoiy; natijasi-jihatdan iqtisodiy; ko'lami jihatdan-davlat ishi bo'lgan masaladir.

Yoshlarning kelgusida o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishlari va ularni jamiyatga xizmat qilishlarini ta'minlash ko'p jihatdan mustaqil hayotga qadam qo'yish bo'sag'asidayoq kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga bog'liq. O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash ta'lim-tarbiya va mehnatga o'rgatish ishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Kasb tanlash jarayonining shakllanishi, rivojlanishi boshqa har qanday jarayonlari singari, turli qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishi va ularni yengish imkoniyatari orqali amalga oshadi. Yoshlar kelajakda o'zlarining kim bo'lib yetishishlarini belgilab olishda qiyinchiliklarga duch kelishlarining boisi ham shunda.

¹ Jizzax davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistri

² Ilmiy rahbar, Jizzax davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari doktori



O'quvchilarning kasb tanlashlari-bu, ularning kelgusidagi mehnat faoliyatlariga ham, hayotlariga ham dahldor bo'lgan ijtimoiy zaruriyatdir.

Kasb tanlash sohasida amalga oshiriladigan eng muhim vazifalardan biri –har xil metodlarni ishlab chiqish va ulardan ommaviy tarzda foydalanishni tajriba qilib ko'rish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borishdan iboratdir.

Har qanday fan tomonidan amalga oshirilishi zarur deb belgilangan vazifalarning yechimini topishda ta'lim -tarbiya jarayonida qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyatga ega. Zero, oqilona tanlangan metod va vositalar ta'lim-tarbiya maqsadining samarali natijalanishini ham ta'minlaydi. Shu sababli har bir fan, shu jumladan, o'quv fani doirasida faol qo'llaniladigan metodlar aniq belgilab olinadi.o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda pedagogik texnologiyalar masalalarini tadqiq etishda ilmiy-pedagogik texnologiya masalalarini ajratib ko'rsatishni lozim deb topdik.

Uzluksiz ta'lim tizimida innovatsion ta'limdan foydalanish ta'lim oluvchilar tomonidan bilim, ko'nikma, malakalar o'zlashtirayotgan sohalarida yangiliklar yaratish, ilg'or g'oyalarni asoslash, amaliyotga samarali tatbiq etishga tayyorlaydi. Kelgusida kasbiy faoliyatni tashkil etishda innovatsion ta'lim tamoyillaridan samarali foydalanish uchun bo'lajak mutaxassis kasb egasi sifatida o'quvchilar quyidagi qiziqish va qobiliyatlarini shakllanishiga yordam beradi:

- Tanlayotgan kasbida ijodiy yondoshish ko'nikma va malakalariga erishishga intilish;
- O'z hayot yo'lini rejalashtirish, yutuq va kamchiliklarni anglab xulosaga kelishni o'rganish orqali sabab va oqibatlarni aniqlash qobiliyatlarini shakllanishi;
- Tanlayotgan kasbi bo'yicha tashabbuskor, ijodkor mutaxassislarning ish tajribalarini o'rganish va aniq biron kasbni egallaganda kasbiy faoliyatida ularni ilg'or g'oyalarini qo'llay olishi;
- Jahon va respublika miqyosida faoliyat olib borayotgan novator (yangilik yaratuvchi) mutaxassislar bilan hamkorlik o'rnatish qobiliyatlarini shakllantirish;
- Kelajakdagi kasbiy faoliyat muhitida o'zaro fikr almaashish va yordam ko'rsatish usullarini o'rganishi;
- Kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan nizolarning oldini olish va bartaraf etish yo'larini topishga o'rgatish;
- Kasbiy yangiliklardan izchil habardor bo'lib borish, ularni sharoitdan kelib chiqqan holda amaliyotda qo'llash kabi qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirib borishga erishiladi.

Umuman, yoshlarning kasb tanlashini o'rganish va ularni kasbga yo'llash bir-biri bilan uzviy bog'langan bir qancha yo'nalishga ega bo'lib, bu har bir yo'nalishda ishlab chiqilgan majmual dasturlar orqali amalga oshiriladi.

Bu vazifani amalga oshirish qator tashkiliy metodik ishlarni bajarishni talab qiladi. Bular jumlasiga ishlab chiqarish korxonalarida, tegishli hududlar, shahar va tumanlarda kasbga yo'llash xonalarini tashkil qilish, kasblarning foto izohini tuzish, kasblarni targ'ib qilish va mehnat reklamasini uyushtirish, kasbga yo'llash bilan shug'ullanuvchil xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish kabi tadbirlar kiradi. Bunday tadbirlar orqali o'quvchi-yoshlarni ongli va mustaqil ravishda kasb-hunar tanlashga tayyorlash hamda kelgusi ta'limning yo'nalishi va kasb-hunar egallashning usullarini o'rganishga ko'maklashiladi.

1999, 2006, 2010, 2017 yillarda umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha DTS va tayanch o'quv dasturlari ishlab chiqildi. Xususan 2020 yilda qabul qilingan uzviylashtirilgan DTS va o'quv dasturlari asosida hozirgi paytda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi texnologiya ta'limi darslari quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi ko'zda tutilgan:

1. Texnologiya va dizayn yo'nalishi. 5-7 sinflarda bu yo'nalish bo'yicha metal va polimer hamda yog'och materiallarga ishlov berish texnologiyasi deb nomlangan uchta asosiy qismdan iborat. Har bir qism asbob-uskunalar va moslamalar, mexanizm-mashina va stanoklar, mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi kabilarni o'z ichiga oluvchi metal, polimer va yog'och materiallarga ishlov



berish texnologiyalaridan tashkil topgan. Bundan tashqari mazkur yo'nalishda robototexnika asoslari, ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari, xalq hunarmandchiligi texnologiyasi (istisoslashtirilgan ta'lim), yog'och o'ymakorlik san'ati kabi bulimlarni o'rganish tavsiya etilgan.

2. Servis xizmati yo'nalishi. 5-7 sinflarda bu yo'nalish ham asosan ikki qismdan, ya'ni pazandachilik asoslari va gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi qismlaridan tashkil topgan (Rasm-2). O'z navbatida bu qismlar ham pazandachilik asoslari, gazlama materiallarga ishlov berish texnologiyalari, robototexnika asoslari, ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari, xalq hunarmandchiligi texnologiyasi (istisoslashtirilgan ta'lim-tanlangan hunarmand-chilik turi), kabi bulimlarni o'rganish tavsiya etilgan. Shu bilan birga tikuv buyumlarini ta'mirlash ishlari ham bajariladi.
3. Qishloq xo'jaligi asoslari yo'nalishi. 5-7 sinflarda bu yo'nalish bo'yicha Agrotexnika asoslari, Qishloq xo'jaligi asbob-uskunasi va unda foydalanish, Qishloq xo'jaligi mashinalari, Chorvachilik asoslari, Robototexnika asoslari, Ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya asoslarini o'rgatishni ko'zda tutuvchi bulimlardan tashkil topgan.

Mazkur rejadan ko'rinadiki, ajratilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarga oldin ma'lum darajada nazariy materiallar o'rgatiladi. So'ngra o'sha mavzular amaliy ravishda o'rganiladi. Bunda ichki imkoniyatlardan, yaqin orada joylashgan yog'och, metal, polimer, gazlamalarga ishlov berishga asoslangan ishlab chiqarish korxonalari, oziq ovqat ishlab chiqarishga asoslangan ishlab chiqarish korxonalari (umumiy ovqatlanish joylari) va fermer xo'jaliklarining moddiy-texnik bazasidan foydalanish mumkin.

8-9-sinflarda ham xuddi shunday yo'nalishlarda ma'lum turdagi materiallarga ishlov berishga asoslangan xalq hunarmandchiligi turlari, mashg'ulotlar tashkil etiladi. VIII sinf texnologiya va dizayn yo'nalishi bo'yicha zamonaviy texnika va texnologiyalar, materiallarga ishlov berish texnologiyasi, Robototexnika asoslari, Ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari, xalq hunarmandchiligi texnologiyasi (istisoslashtirilgan ta'lim), servis yo'nalishini bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi, materiallarga ishlov berish texnologiyasi, robototexnika asoslari, Ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari, xalq hunarmandchiligi texnologiyasi (istisoslashtirilgan ta'lim), qishloq xujalik asoslari bo'yicha zamonaviy texnika va texnologiyalar, qishloq xo'jaligi texnologiyasi, robototexnika asoslari, ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya asoslari kabi bo'limlar bo'yicha o'qitish tavsiya qilingan. IX sinf texnologiya va dizayn yo'nalishi bo'yicha zamonaviy texnika va texnologiyalar, materiallarga ishlov berish texnologiyasi, robototexnika asoslari, ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari, xalq hunarmandchiligi texnologiyasi (istisoslashtirilgan ta'lim), servis yo'nalishini bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi, materiallarga ishlov berish texnologiyasi, robototexnika asoslari, ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari, xalq hunarmandchiligi texnologiyasi (istisoslashtirilgan ta'lim), qishloq xo'jalik asoslari bo'yicha zamonaviy texnika va texnologiyalar, qishloq xo'jaligi texnologiyasi, robototexnika asoslari, ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya asoslari kabi bo'limlar bo'yicha o'qitish tavsiya qilingan.

Bulardan ko'rinadiki, texnologiya ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilarga xalq xo'jaligining eng asosiy, eng ko'p qo'llaniladigan sohalari bo'yicha dastlabki bilimlarni berish va mehnat ko'nikmalarini singdirish nazarda tutilgan (3-rasm).

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, yuqorida aytilganidek, hozirgi paytda fan va texnika juda tez rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Bu esa o'quv fanlarini ham mazmunan va shakllan o'zgartirib borish, zamon talablariga muvofiqlashtirib borishni taqazo etadi. Shundan kelib chiqqan holda hozirgi paytda respublikamizning umumiy o'rta ta'lim maktblarida o'qitilayotgan texnologiya ta'limiga ham mazmunan va shakllan o'zgartirishlar kiritish zarurayati yuzaga keldi. Shu munosabat bilan biz quyidagilarni taklif etamiz:

1. Eng avvalo "Mehnat ta'limi" atamasini "Texnologik ta'lim" atamasi bilan almashtirish juda urinli bo'lgan, imkon qadar bu nomni aniqlashtirib "Texnologiya ta'limi" deyish maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki, birinchidan, mehnat ta'limi jarayonida bajariladigan ishlar bevosita texnologik



jarayonlar bilan bog'liq. Ikkinchidan, qo'shni davlatlarda (masalan, Rossiyada) allaqachon mehnat ta'limi darslari texnologiya ta'limi deb yuritilmoqda. Uchinchidan, atamani o'zgartirish orqali mazkur fanga e'tiborni qaratish va unga bo'lgan ayrim salbiy qarashlarga barham berish va h.

2. Texnologiya ta'limiga ajratilgan dars soatlarini saqlab qolish, iloji bo'lsa yuqori sinflarda ko'paytirish.
3. Hozirgi paytda o'quvchilarga texnologiya ta'limi darslarida yog'ochlarga, metallarga, gazlamalarga ishlov berish kabi klassik mavzularni o'rgatib kelmoqdamiz. Vaholanki, hozirgi paytda ko'plab detallar va buyumlar plastmassalardan tayyorlanmoqda. Bu haqda esa o'quvchilarga maktabda deyarli ma'lumot berilmaydi. Shu jihatdan biz o'qitish ishlarida ma'lum ma'noda hayotdan, ishlab chiqarishdan orqada qolmoqdamiz.
4. 5-7-sinflarda o'tiladigan Servis xizmati yo'nalishi mashg'ulotlari tarkibidagi uy-ro'zg'or ishlarini yuritish bo'limini kengaytirish. Chunki bizda tarkib topgan an'anaga ko'ra mazkur yo'nalish mashg'ulotlari qizlarga o'tiladi. Qizlar – bo'lg'usi uy bekasi, bo'lg'usi ona. Shuning uchun bu ishlarni o'rgatish ularni kelgusidagi katta hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz.
5. 8-9-sinflarda o'tiladigan texnologiya ta'limi barcha yo'nalishlarida elektronika asoslari bo'limini yangilari asosida kengaytirish. Chunki hozirgi zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashgan, avtomatlashgan liniyalarsiz, turli xil robotlarsiz tasavvur eti bo'lmaydi. Mazkur bo'limni kiritilishi va bunda mashg'ulotlarni olib borilish o'quvchilarni keyinchalik kasb hunar texnikumlariga kirib o'qishga va ishlab chiqarishga tayyorlashda katta yordam beradi, deb hisoblaymiz.
6. Bizga ma'lumki, 5-7 sinflarda mahsulot va mkateriallarga ishlov berish texnologiyalari, 8-9 sinflarda shu texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish asoslari o'qitiladi. Ana shu didaktik ketma-ketlikni e'tiborga olsak, nazarimizda hozirda ijroda bo'lgan o'quv dasturlarini qushimcha va o'zgartirishlar bilan qarab chiqish maqsadga muvofiq deb uylaymiz. Ayniqsa, 5-sinflarga taklif qilinayotgan rabota texnika bo'limi o'quvchi yoshlar psixologik holatlari va fizik qonuniyatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'lardi. Xalq hunarmandchilik bo'yicha berilayotgan mavzularni aniqlashtirish, hunarmandchilikda naqqoshlik alohida urin tutilishi va hunarmandchilik turlarni o'qitishga tanlash mezonlari kelti-rilsa yaxshi bo'lardi. Qishloq xujaligida ekinlarni yetishtirish texno-logiyasiga oid mavzular, ekinni biologik usish agratexnikasi asosida berilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Qolaversa, qishloq xujalik texnikasi-ga oid mavzularni o'rgatish ketma-ketligini shu asosda berish kerak. Boshqa yo'nalishlarni ham shu asosda kurib chiqish foydadan xoli bo'lmas edi.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Rivojlanish intensivligi sharoitida yog'ochsozlik va sanoatda, yengil va oziq ovqat sanoatida, qishloq xo'jaligida klasster ish yuritish kabi yangilik va innovatsiyalar haqida yosh avlodga o'rgatish zaruriyati bo'ladi. Shu boisdan umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya ta'limini o'quv dasturlarini doimo zamon talabi asosida qo'shimcha va o'zgartirishlar orqali boyitib borish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Sharipov Sh.S., Abduraimov Sh.S., Zaripov L.R., Qodirov B.E. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Darslik. –Toshkent: “Lesson Press” nashriyoti, 2022., 111 b
2. Muslimov N. va b. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi O'quv qo'llanma. –T.: 2009 427 b.
3. Davlatov K. Mehnat va mehnat ta'limi, tarbiyasi hamda mehnat tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.
4. М.З.Муртазаев. Технология таълимини ўқитиш услуги. Хрестоматия шаклидаги ўқув қўлланма. – Тошкент: «Фан ва технология», 2014. – 998 бет.

